

## MA'LUMOTLAR BAZASI VA MBBT HAQIDA TUSHUNCHА

### 66-dars. ELEKTRON TIJORAT VA ELEKTRON TO'LOV TIZIMLARI

Internet texnologiyalari keng qo'llaniladigan sohalardan biri tovar va xizmatlar savdosining

#### TAYANCH TUSHUNCHALAR

**Elektron tijorat** (ingl. *e-commerce*

– elektron savdo) – savdo-sotiq amaliyotlarini Internet orqali tashkil etish.

barcha turlarini o'zida qamrab olgan elektron tijoratdir. Elektron tijorat tushunchasi (ingl.

*Elektronic Data Interchange* – EDI) – ma'lumotlarni elektron almashish, elektron pochta, Internet, intranet (kompaniya ichida axborot almashish) va ekstranet (tashqi dunyo bilan axborot almashish) kabi texnologiyalarni o'z ichiga oladi. Elektron tijoratning an'anaviy savdo turlaridan farqi quydagilardan iborat:

- xaridor uchun o'ziga qulay vaqt, joy va tezlikda mahsulotni tanlash, sotib olish imkoniyati;
- savdo-sotiq faoliyatining boshqa faoliyatlarga xalal bermasligi, ya'ni parallel ravishda olib borish imkoniyati;
- ko'p sonli xaridolarning bir vaqtning o'zida bir nechta firmaga murojaat qila olish imkoniyati;
- zarur mahsulotlarni tez izlab topish, izlangan mahsulotlar mavjud korxonalarga murojaat qilishda texnika va transport vositalaridan samarali foydalanish imkoniyati;
- hozirda mavjud jahon standartlariga javob beradigan mahsulotlarni tanlash va sotish imkoniyati;
- elektron tijoratda savdoni tashkil qilish korxonalarning raqobatini kuchaytiradi, monopoliyadan chiqaradi va mahsulotlarning sifatini oshirish imkoniyatini beradi;
- xaridorning yashash joyi, sog'lig'i va moddiy ta'minlanish darajasidan qat'i nazar hamma qatori, teng huquqli mahsulot sotib olish imkoniyati.

Elektron tijorat axborot tizimlaridan foydalangan holda tuziladigan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladigan tovar (ish, xizmat)lar oldi-sotdisi hisoblanadi. Quyidagilar elektron tijorat tizimining eng keng tarqalgan toifalari hisoblanadi:

**B2C**

*biznes-iste'molchi*. Chakana savdo (Internet orqali amalga oshiriladi, masalan, tovarlarni Amazon.com, ebay.com orqali sotish).

**B2B**

*biznes-biznes*. Biznes hamkor bilan savdo aloqlar o'rnatish (masalan, smartfon ishlab chiqaruvchi tovarlarini sotish uchun ulgurji sotuvchilardan foydalanadi).

**C2C**

*iste'molchi-iste'molchi*. Iste'molchilar o'rtaсидаги savdo (masalan, gazeta yoki jurnallarda ma'lum bir mahsulotni sotish haqidagi reklama).

## MA'LUMOTLAR BAZASI VA MBBT HAQIDA TUSHUNCHА



### ESLATMA!

Elektron tijorat faoliyati O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi (yangi tahrirdagi) Qonuni bilan belgilanadi va amalga oshiriladi. (2015-yil 22-may, O'RQ-385-son)

Elektron tijorat *ulanishlar nuqtayi nazaridan*, telefon liniyalari, kompyuter tarmoqlari yoki boshqa har qanday elektron vositalar yordamida ma'lumot, tovar, xizmat va to'lovlarni yetkazib berish; *vaqt nuqtayi nazaridan*, real vaqt rejimida Internetda tovar, xizmat va ma'lumotlarni sotish hamda kunning xohlagan vaqt (soat)ida sotib olish imkonini beradi. Elektron tijoratni amalga oshirish uchun elektron pullar kerak bo'ladi.

### TAYANCH TUSHUNCHALAR

**To'lov** – sotib olingan tovar yoki xizmatlar uchun to'lanadigan pul, mablag'lardan foydalanish, berilgan qarzni qaytarish, majburiyatlar bo'yicha hisob-kitob va h. k.

**Elektron to'lov** – texnika vositalari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlari xizmatlaridan foydalangan holda elektron to'lov hujjatlari vositasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish.

**Elektron pullar** – pul birligiga tenglashtirilgan belgilar, kupyura va tanga rolini bajaruvchi katta son yoki fayllar. Bunday tizimning faoliyat ko'rsatish xarajatlari boshqalaridan ancha kam bo'ladi. Bundan tashqari, elektron pullar to'liq anonimlikni ta'minlashi mumkin, chunki uni ishlatgan mijoz haqida hech qanday ma'lumot yubormaydi. Elektron pullarni elektron hamyon yoki to'g'ridan to'g'ri bank kartasidan yuborish mumkin.

#### Jadvalda elektron pul birliklari keltirilgan:

		<b>WME</b>	Yevroda operatsiyalarni amalga oshirish uchun EURning E-hamyondagi ekvivalenti;
<b>WMY</b>	O'zbekiston zonasida operatsiyalarni amalga oshirish uchun UZSning Y-hamyondagi ekvivalenti;	<b>WMU</b>	Ukraina zonasida operatsiyalarni amalga oshirish uchun UAHning U-hamyondagi ekvivalenti;
<b>WMR</b>	rubl zonasida operatsiyalarni amalga oshirish uchun RURning R-hamyondagi ekvivalenti;	<b>WMB</b>	Bellorussiya zonasida operatsiyalarni amalga oshirish uchun BYRning V-hamyondagi ekvivalenti;
<b>WMZ</b>	AQSH dollarida operatsiyalarni amalga oshirish uchun USDning Z-hamyondagi ekvivalenti;	<b>WMG</b>	1 gramm oltinning G-hamyondagi ekvivalenti;
		<b>WBC, WMD</b>	WMZning S va D hamyonlardagi kredit operatsiyalari uchun ekvivalenti..

## MA'LUMOTLAR BAZASI VA MBBT HAQIDA TUSHUNCHА

### BU QIZIQ!

Chakana savdo bilan shug'ullanuvchi dunyodagi birinchi mashhur "onlayn sotuvchi" amazon.com edi. 1995-yilda AQShning Sietl shahrida kitob do'koni sifatida tashkil etilgan Amazon hozirda butun dunyoda juda keng turdagи mahsulotlarni sotish bilan shug'ullanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida OSON, E-CARD, CLICK, WOOPPAY, alif.mobi, shuningdek, Interpay kabi elektron pul tizimlari ishlaydi.

**Elektron hamyon** elektron pullarni saqlash uchun mo'ljallangan vosita hisoblanadi. Elektron hamyonni to'ldirish va ulardan pul yechishni tijorat banklarida naqd pul, bank kartalari (Visa, Mastercard, Uzkart), pochta, Internet-banking, pul o'tkazmalar tizimlari va mobil aloqa yordamida amalga oshirish mumkin.

**Elektron to'lov vositalari** – axborotni o'z ichiga olgan va to'lovchiga to'lovni amalga oshirish imkonini beruvchi bank kartasi yoki boshqa elektron jism.

**Bank kartasi** – mahsulot va xizmatlar uchun naqd pulsiz shaklda haq to'lash, pulni saqlash va olib yurish, zarur hollarda esa naqd pul yechish uchun zamonaviy qulay to'lov vositasi. Bank kartasi orqali do'konda xarid, hatto Internetda har qanday mahsulot, samolyot yoki poyezd chiptalari uchun to'lovlarni amalga oshirish mumkin. Muayyan faoliyat uchun mo'ljallangan Uzcard, Humo, Visa, MasterCard, UnionPay, MIR, Maestro va UnionPay kabi turli bank kartalari mavjud. Jumladan, UzCard sizga O'zbekiston Respublikasi hududida xarid va to'lovlarni amalga oshirish, shuningdek, milliy valyutada onlayn to'lovlarni amalga oshirish imkonini beradi.

**HUMO** kartasining afzalliklaridan biri – chegarasiz, PIN-kodni kiritmasdan, kontaktsiz to'lov va xaridlarni amalga oshirishdir.

**Mastercard** – bu dunyo bo'yicha eng mashhur karta hisoblanib, chet elda mehnat ta'tili yoki xizmat safarida bo'lgan vaqtingizda qulay to'lov vositasidir.

**Mastercard & UzCard kobeyj kartasi** – MasterCard xalqaro to'lov tizimi va UzCard mahalliy to'lov tizimining noyob kartasi; milliy va chet el valyutasidagi pul o'tkazmalari, bankomat va terminallardan chet el safarlarida foydalanish va Internetda har qanday xarid uchun haq to'lash uchun karta.

**QR-kod (Quick Response Code)** – tezkor aniqlanadigan kod. Kod o'zida obyekt haqidagi ma'lumotni mujassam etadi, kundalik va turli savdo jarayonlarini sezilarli darajada optimallashtirishga yordam beradi.

"QR-online" – Uzcard va HUMO to'lov terminallarining to'laqonli muqobili. Tizim to'lov va pul o'tkazmalari (QR-to'lovlar) uchun juda qulay. Ushbu onlayn imkoniyat O'zbekistonda elektron

## MA'LUMOTLAR BAZASI VA MBBT HAQIDA TUSHUNCHА

tijoratni muvaffaqiyatlari rivojlantirmoqda, chunki u shaxsga naqd pul yoki bank kartalarini olib yurmaslik imkonini beradi. To'lov uchun zarur barcha ma'lumotlar to'lov ilovasi ichidan joy olgan.

**Elektron to'lov tizimi** – bu Internet orqali amalga oshiriladigan to'lovlar tizimidir. Uning asosiy vazifasi to'lovlar xavfsizligini ta'minlashdan iborat. Bunday tizimdan foydalanish uchun pul mablag'larini yuboruvchi hamda qabul qiluvchi muayyan tizimda ro'yxatdan o'tgan bo'lishlari kerak. Onlayn-to'lovlar naqd pul ishlatmasdan Internetda yoki mobil ilova orqali mahsulot yoki xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish imkonini beradi. Bu operatsiyalar bank kartalari yoki hisob-varaqlarni veb-sayt (yoki mobil to'lov ilovasi)ga ulagan holda amalga oshiriladi. To'lovlarni elektron pul yordamida ham amalga oshirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasida Click, OSON, Payme, PAYMO, PAYBOX, UPAY, EcoPay, Paysys, alif.mobi, WOOPPAY, QR-pay, Myuzcard, GlobalPay, ATTO, MARTA, WEBSUM, ZPLAT kabi elektron to'lov tizimlari mavjud. Elektron to'lov tizimida tovar/xizmatlar to'lovi xaridorning elektron hisobidan sotuvchining elektron hisobiga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

**Internet-do'kon** (ingl. *online shop* yoki *e-shop*) – Internet orqali tovar sotuvchi sayt. Internet-do'kon foydalanuvchilarga Internetda, o'z brauzerida yoki mobil ilova orqali xarid buyurtmasini tuzish, to'lov usulini tanlash va buyurtmani yetkazib berish, buyurtma uchun to'lash imkonini beradi.



## AMALIY FAOLIYAT

### 1-amaliy topshiriq.

Veb-brauzer orqali <https://payme.uz> saytiga kiring. "To'lovlar" sahifasiga o'ting va quyidagi jadvalni to'ldiring:

To'lov bo'limlari	To'lov qilish mumkin bo'lgan elementlar soni	Siz uchun kerakli to'lov nomlari (kamida 3 ta yozing)
Mobil operatorlar	25 ta	Uzmobile GSM; Beeline; Mobiuz
Internet provayderlar		
Kommunal xizmatlari		
Elektron hamyonlar		
Onlayn xizmatlar		

## MA'LUMOTLAR BAZASI VA MBBT HAQIDA TUSHUNCHА

### 2-amaliy topshiriq.

veb-brauzer orqali <https://click.uz/uz> saytiga kiring;  
 "Xizmatlar" bandidan "CLICK hamyon" sahifasiga o'ting va CLICK hamyon turlari va imkoniyatlari bilan tanishib chiqing;  
 CLICK hamyon ochish ketma-ketligini yozing:

---

### SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Elektron to'lov tizimlari qanday qulayliklarga ega?
2. Elektron tijorat an'anaviy savdo turlaridan qanday farqlanadi?
3. QR-kod nima uchun kerak?
4. Sinfdoshingiz CLICK ilovasida elektron hamyon yaratish uchun ota-onangiz yoki yaqinlaringizga tegishli karta raqamini so'radi. Siz hech kimga bildirmasdan uning aytganini qildingiz. Sinfdoshingiz bir ozdan so'ng Internet-do'kondan bir nechta kitob sotib olganini aytdi. Bunday vaziyatda siz qanday yo'l tutasiz?

### UYGA VAZIFA

1. Internet-do'konlarda xarid qilish vaqtida xavfsizligingizga ishonch hosil qilish uchun nimalarga e'tibor berishingiz kerak?
2. Elektron tijorat va an'anaviy savdoning afzallik va kamchiliklariga oid jadvalni to'ldiring:

Savdo turlari	Afzallaiklari	Kamchiliklari
Elektron tijorat		
An'anaviy savdo		

3. Nomlari keltirilgan Internet-do'konlarni unda sotiladigan mahsulotlar turi bo'yicha guruhlarga ajratting:

Mahsulot turlari	Internet-do'kon nomlari
Oziq-ovqat savdosи	
Kiyim-kechak savdosи	
Texnika savdosи	